

O'ZBEK TILI VAZIFADOSH BOG'LOVCHILARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Usmonov Aslam Karshiboyevich

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqola "Vazifadosh bog'lovchilarning funksional xususiyatlari" deb nomlangan bo'lib, maqolasida vazifadosh bog'lovchilar va ularning qo'llanishiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada vazifadosh bog'lovchilarning matnda qo'llanishida yuzaga kelgan uslubiy va pragmatik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Bilan, na., na., -u, -yu yordamchilari hamda balki modal so'zi vazifadosh bog'lovchi vazifasida qo'llana olishi misollar orqali isbotlangan.

Резюме: Данная статья "Функциональные особенности функциональных соединителей" содержит информацию о функциональных соединителях и их применении. В статье рассматриваются методологические и прагматические особенности использования функциональных соединителей в тексте. Bilan, na., na., -u, -yu вспомогательные слова и модальное слово "balki" можно использовать как функциональное соединение.

Resumes: This article which is named "Functional aspects of functional conjunctions" conveys information about functional conjunctions and their use. The article discusses the methodological and pragmatic features that arise in the use of functional conjunctions in the text. " bilan, na.,na., -u, -yu" auxiliaries and "balki" the modal word have been proved by examples that they can be used as a functional conjunctions.

Kalit so'zlar: bog'lovchi, pragmatika, uslub, bo'lak, ma'no, munosabat, sintaksis, gap

Ключевые слова: союз, прагматика, метод, член предложения, значение, отношение, синтаксис, слово, речь

Key words: conjunction, pragmatics, method, parts of speech, meaning, attitude, concern, syntax, speech, sentence.

Ilmiy adabiyotlarda "yordamchi so'zlar" termini ostiga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama birlashtiriladi. Bulardan ko'makchini leksemashakl tarkibiga kiradigan morfema deb, noparadigmatik morfemalar majmui deb baholadik. Demak, grammatik birlik turkumlari deganda avvalo bog'lovchi va yuklama nazarda tutiladi.¹ Bog'lovchi – gap bo'laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z turkumining biri. Bog'lovchi so'zlar orasidagi, gaplar orasidagi sintaktik munosabatni ta'minlaydi va ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Mas., *kitob* so'zining lug'aviy ma'nosi ustiga ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot ma'nosi qavatlangan bo'ladi. *Hamda* so'zida "gap bo'laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog'lash" uning mohiyatini tashkil etadi.

Bog'lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergash bog'lovchilar deb ikkiga guruhlanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga oid barcha

¹ Rahmatullayev Sh., Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent "Universitet" 2006-yil

darsliklarda bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki turga ajralib tasnif qilinadi: 1) teng bog'lovchilar, 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.²

Teng bog'lovchilar sodda gaplar tarkibidagi (shuningdek qo'shma gaplar tarkibidagi) qismlarni o'zaro teng bog'laydi va quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, hamda*.
2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq*.
3. Ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki; goh..., goh...; dam..., dam...* kabi.

Bog'lovchining adabiyotlarda tabiatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratilgan: 1) sof bog'lovchi; 2) vazifadosh bog'lovchi.³ Bog'lovchilarning bunday bo'linishi ayrim adabiyotlarda bog'lovchilarning kelib chiqishiga ko'ra turlari shaklida beriladi. Bog'lovchilar ham xuddi ko'makchilar singari sof va vazifadosh turlarga bo'linadi. Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar sanaladi: *va, lekin, ammo, biroq* kabi. Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi bog'lovchilar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi. Masalan: Yozda Buxoroga qarindoshlarimizni ko'rgani bordik ham (bog'lovchi) tarixiy obidalarni tomosha qildik.⁴

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, faqat bog'lovchiga xos vazifa bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar deyiladi. Ularga: *va, lekin, ammo, yo, goh..., goh...* shu kabi bog'lovchilar kiradi. Vazifadosh bog'lovchilar deyilganda kelib chiqishi boshqa so'z turkumiga oid so'z lekin ba'zi o'rinlarda bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlar tushuniladi. Masalan: bilan ko'makchi; -u (-yu), -da, na..., na..., ham yuklamalari; balki modal so'zi va shu kabilar. Vazifadosh bog'lovchilarning funksional-stilistik xususiyatlari o'ziga xosdir. Ko'p xollarda stilistik ma'no faqat uslubiy xoslangan so'zlarda borday, aslida bunday emas.

Stilistik ma'no faqat uslubiy xoslangan so'zlardagina emas, balki tildagi barcha so'zlarda mavjud bo'ladi. Ayrim so'zlarda potensial ravishda bor bo'lgan ushbu ma'no kontekstda, so'zning o'zaro aloqasi natijasida namoyon bo'ladi.⁵

bilan o'zining asosiy ko'makchilik vazifasidan tashqari, biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida ham qo'llanishi mumkin.⁶ Mas: Oyim *bilan* dadam o'rtasida bo'lib o'tgan janjal ta'sir etdi chamasi, buning hammasini yana bir esladim. *bilan* yordamchisi sof biriktiruv bog'lovchi hisoblangan *va, hamda* bog'lovchilarinig birgalik hamda tenglik ma'nolarini ifodalaganda biriktiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi. Mas: I.Eshikdan kiraverishdagi divanga o'tirib non bilan kolbasani tushirayotgan Kuloyans og'zidagini yuta turib g'alati jilmayib qo'ydi.[O.Yoqubov. Muqaddas q-sil0] 2.To'lagan bilan Kuloyans baravar stullarini

² Ҳозирги ўзбек адабий тили, II томлик, I том.-Т.: 1966 йил. –360-бет; Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1978. – 356 б.; Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм.- Т.: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.

³ Mengliyev B.R va boshqalar... Ona tili. Qomus.-Toshkent. 2009-yil, 111-бет.

⁴ Mengliyev B.R va boshqalar... Ona tili. Qomus.-Toshkent. 2009-yil, 111-бет.; Mahmudov N. va boshqalar: Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. –Т.: Manaviyat, 2005. -128 б.

⁵ Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat / ilmiy risola/ -Tosh: Nodirabigim, 2020.-120 б.

⁶ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм.- Т.: Ўқитувчи, 1980. – 448 б. ; Faxri Kamol taxiri ostida. Ҳозирги замон о'збек тили. 1957-йил

surib, yaqinroq o'tirishdi. [O.Yoqubov. Muqaddas q-si 13] *bilan* yordamchisi mazkur misollarning birinchisida birgalik, ikkinchi misolda esa tenglik ma'nosida kelmoqda. Shu sababdan *bilan* ko'makchisi va, *hamda* bog'lovchilariga sinonim bo'lib vazifadosh bog'lovchi vazifasini bajarib kelgan.

– na..., na... yuklamasi: *na otam bor, na onam bor.*

na...na... yordamchisining yuklama ekanligi R.Rasulovning O'zbek tilida yordamchi so'zlarning semantik-grammatik xususiyatlari asarida o'z isbotini topganligi takidlangan.⁷

Hozirgi adabiy o'zbek tili (R. Sayfullayeva va boshqalar, Fan-texnologiya. -T.: 2010.-404) darsligida bu yordamchi so'z bog'lovchi-yuklama deb yuritilgan. Mualliflarning fikricha, ham... ham biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'no bo'yog'iga ega, na..., na... esa inkor ma'nosini ifodalaydi, -mi so'roq-taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog'lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog'lovchi-yuklama hisoblanadi.⁸ na...na... yordamchisi qo'llangan gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa yuklama, agar na..., na..., yordamchisi qo'llangan gapning kesimi tasdiq shaklda bo'lsa u holda bu so'z vazifadosh bog'lovchi hisoblanadi. Masalan: *Lekin u mahallar, oltmishinchi yillarning boshlarida uydirma shior atrofida qancha shov-shuvlar, qancha dabdabalar bo'lgan, bu haqda yozmagan na birorta gazeta, na radio, na televidenie qolgandi.* [O.Yoqubov. Muqaddas q-si14] "*Menda na yigitlik izzat-nafsi, na g'urur, na iroda qoldi*" — *deb o'yladim ichimda.* [O.Yoqubov. Muqaddas q-si22] *Biz nimagadir bu xilvat joylarda to'xtamas, to'xtashni na u, na men taklif qilardik.* [O.Yoqubov. Muqaddas q-si 22]

Keltirilgan misollarda na...na... yordamchisi yuklama yoki vazifadosh bog'lovchi ekanligi gaplarning kesimi tasdiq yoki inkor shaklda ekanligiga bog'liqdir. Shu kabi xususiyatlar ham na..., na... yordamchisining funksional xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

– balki modal so'zi ham vazifadosh bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin. Maslan: *Bu gaplar qulog'imga kirmas, balki battar g'ashimga tegar edi.*

Balki so'zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama-qarshilik ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi.⁹

Balki so'zi ko'pincha zidlov bog'lovchisi vazifasida qo'llanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ham balki so'zi zid ma'noli gaplarni, gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash, qiyoslash uchun xizmat qiluvchi so'z, hamda gumon, taxmin ma'nolarini bildirgan modal so'z sifatida izohlangan. Ko'p adabiyotlarda modal so'zlar gapning boshida kelganda, undan keyin, gapning o'rtasida kelsa, har ikki tomondan, gap oxirida kelganda undan oldin vergul quyilishi aytiladi.

Modal so'zlar gap boshida kelganda, undan so'ng, gap o'rtasida har ikki tomondan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul bilan ajratib yoziladi.¹⁰ Biz kuzatishlarimiz davomida balki so'zini har ikkala tomondan vergul qo'yilgan holatni uchratmadik. Aksaryat holda balki so'zidan oldin vergul qo'yilgan bunday halat bu so'zini gapning o'rtasida kelganda ko'proq vazifadosh bog'lovchi bo'lib kelishidan dalolat beradi. Chunki

⁸ Sayfullayeva R. va boshqalar, Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. 2010-yil

⁹ Sayfullayeva R. va boshqalar, Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. 2010-yil.; Фахри Камол тахрири остида. Хозирги замон ўзбек тили. 1957-йил.

¹⁰ Mahmudov N. va boshqalar: Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: Manaviyat, 2005. -128 b.; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси.- Т.: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.

ammo, lekin, biroq, bog'lovchilari gapda qo'langanda odatda bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Mening familiyam ro'yxatning o'rtasida, balki undan ham oldinroqda bo'lishi kerak edi.* [O.Yoqubov. Muqaddas q-si26]

Ta'kid yuklamasi (-ku, -da, -u, -yu) gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi.* Takid yuklamasi hisoblangan -u, -yu qo'shimcha shaklidagi yuklama faqat takid ma'nosini ifodalashdan tashqari bog'lovchi vazifasida ham keladi. -ku bog'lovchi vazifasini bajarganda zidlov bog'lovchisiga ko'chgan -u, -yu yuklamalari bilan ham sinonimlik hosil qiladi.

Shuningdek, -u (yu), -da, ham, -a yuklamasi, ba'zan ravishi ham bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin. Ayrim so'zning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog'lovchining miqdori, ularning mohiyati, turi hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama kabilar – til tizimida yordamchi so'z turkumiga xos bo'lgan «oraliq uchinchi».¹¹

O'zbek tili bog'lovchisining ma'no va xususiyati tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchi bilan bog'liq masalalarni ilmiy hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh vazifalardan biri sanaladi.¹²

Xulosa qilib aytganda, *bilan*, *na.., na.., -u, -yu* yordamchilari hamda *balki* modal so'zi turli xil ma'noda qo'llana olishi va bog'lovchisi vazifasida qo'llanishi uning o'ziga xos funksional-stilistik xususiyatga ega ekanligini belgilaydi. Gaplarda qo'llanadigan bu kabi vazifadosh bog'lovchisini o'rganish til birliklarining o'z xususiyatlarini oydinlashtirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шейлз Д. Коммуникативность в обучении современным языкам. современных языков для целей общения».
2. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / отв. ред Б. А.Серебренников. М.: Наука, 1988. С. 8-69.
3. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика:учеб. Пособие /Мн.Тетра Системс, 2004. 256 с.
4. N.N. Goncharova Linguistic picture of the world as a object of linguistic description.
5. Azimjon Latifjon oqli Melikuziev. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126–128. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/UAH577>.
6. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.

¹¹ Sayfullayeva R. va boshqalar, Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. 2010-yil.

¹² Sayfullayeva R. va boshqalar, Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. 2010-yil.